

TA'LIM MUASSASALARIDA "KELAJAK SOATI" DARSLARI DOIRASIDA QATAG'ON QURBONLARI HAYOTI VA FAOLIYATIGA DOIR TARG'IBOT SSENARIYSI

3-mavzu: "Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim va taraqqiyot fidoiysi"

Dars maqsadi:

Annotatsiya: Mazkur darsda Turkiston tarixida muhim o'rin tutgan jadidchilik harakati hamda uning yirik namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti, ijodi va ma'rifiy-siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan. Darsning motivatsion qismida jadidlarning xalqni ilm va taraqqiyot sari yetaklashdagi o'rni ochib beriladi. Asosiy qismda Behbudiyning ma'rifatchilik faoliyati, yangi usul maktablari uchun yozgan darsliklari, "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalini tashkil etishi, milliy matbuot va ma'naviy uyg'onishdagi xizmatlari batafsil yoritiladi. Shuningdek, uning milliy teatr asoschisi sifatidagi faoliyati, "Padarkush" dramasi orqali jamiyat illatlarini fosh etish yo'lidagi tashabbuslari o'quvchilarga tanishtiriladi. Mazkur darsda Mahmudxo'ja Behbudiyning 1917-1918-yillardagi siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatlashdagi roli ham o'z ifodasini topadi. Uning fojeali taqdiri, sovet davridagi qatag'on qurboni sifatida shahid bo'lgani, mustaqillik yillarida nomi va merosining tiklangani haqida ma'lumotlar beriladi. Dars ishlanmasi o'quvchilarda milliy o'zlik, tarixiy xotira, ma'rifatparvarlik g'oyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

🎯 Aniq maqsadlar:

1. O'quvchilarga Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy ahamiyatini ilmiy asosda tushuntirish.
2. O'quvchilarga Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa jadidlarning ma'rifiy, insonparvarlik g'oyalari hamda xalq savodxonligini oshirish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishdagi ulkan hissalar haqida bilim berish.
3. O'quvchilarda milliy o'zlik, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish hamda tarixiy merosga hurmat tuyg'usini shakllantirish.
4. O'quvchilarga jadid bobolarining jasorati, xalqparvarligi, zamonaviy dunyoqarashi va fidoyilik fazilatlarini ibrat sifatida yetkazish.

Asosiy g'oyalar: Mahmudxo'ja Behbudiy - Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi siymosi bo'lib, millatni bilim va ma'rifat orqali uyg'otishga katta hissa qo'shgan buyuk ma'rifatparvardir. U o'z faoliyatini nafaqat pedagogik va adabiy ishlar bilan cheklamagan, balki jurnalistika, teatriy asarlar yaratish va siyosiy faoliyat orqali ham xalqni ogohlantirish, milliy uyg'onish va ozodlik ruhini mustahkamlashga xizmat qilgan. Behbudiy o'zining "Kitob – millatning ko'zgusi" va "Ma'rifatsiz xalq – kelajaksiz xalq" degan g'oyalari bilan avlodlarni ilm, adolat

va tafakkurga chorlagan. Uning pedagogik faoliyati maktablar ochish, darsliklar yozish va kitobxonlikni targʻib qilish orqali amalga oshgan boʻlsa, jurnalistik ishlari – “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalini nashr etish orqali millat tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Behbudiy milliy teatrni tashkil etib, sahna orqali jamiyatdagi illatlar va ijtimoiy muammolarni koʻrsatish orqali xalqni taraqqiyparvarlik va maʼrifat sari chorlagan. Siyosiy faoliyati esa Turkiston musulmonlari qurultoylarida millat birligini taʼminlash, muxtoriyatni mustahkamlash va milliy ozodlikni himoya qilishga qaratilgan edi. U millatni birlashishga, mustamlakachilikka qarshi intilishga chaqirib, har jihatdan xalqning erkinligi va adolati uchun kurashgan. Behbudiy oʻz hayoti davomida ilm, maʼrifat va milliy oʻzlikni rivojlantirish yoʻlida fidoyilik koʻrsatib, oxir-oqibat millat ozodligi uchun jonini fido qilgan. Mahmudxoʻja Behbudiy gʻoyalari va faoliyati nafaqat oʻz davrida, balki bugungi kunda ham yosh avlod uchun maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarning yorqin namunasi. U ilm, maʼrifat va vatanparvarlik orqali millatni uygʻotish, milliy gʻururni tiklash va ozodlik yoʻlida fidoyilikning timsolidir. Behbudiy merosi, oʻzining fidoyiligi va jasorati bilan, millatning ruhini yuksaltirish, maʼnaviy barkamollikni oshirish va vatanparvarlikni shakllantirishda ibrat manbai boʻlib xizmat qiladi.

✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy:

- Oʻquvchilar Mahmudxoʻja Behbudiy hayoti va faoliyati orqali Turkiston jadidchilik harakatining maqsad va mohiyatini anglaydi, uning tarixiy ahamiyatini tushunadi.

- Mahmudxoʻja Behbudiyning ilm, maʼrifat, milliy uygʻonish va ozodlik yoʻlida qilgan ishlari, jurnalistika, teatr va pedagogik faoliyati orqali xalqni tarbiyalash gʻoyalarini fikran tahlil qilib, uning merosidan ibrat olish zarurligini idrok etadi.

- Oʻquvchilarda milliy oʻzlik, vatanparvarlik, maʼnaviy qadriyatlar va insonparvarlik tushunchalari rivojlanadi.

2. Hissiy va qadriy:

- Mahmudxoʻja Behbudiyning jasorati, fidoyiligi va millat ravnaqi yoʻlidagi vatanparvarlik ruhidan ilhomlangan holda, oʻquvchilarda masʼuliyat, axloqiy poklik, milliy oʻzlik va Vatanga sadoqat tuygʻulari mustahkamlanadi.

- Oʻquvchilar Mahmudxoʻja Behbudiyning ilm, maʼrifat va ozodlik yoʻlidagi fidokorliklarini qadrlab, tarixiy adolat va milliy merosga hurmat hissini rivojlantiradi.

3. Amaliy koʻnikmalar:

- O'quvchilar Mahmudxo'ja Behbudiyning ilm, ma'rifat va vatanparvarlik yo'lida qilgan fidoyiliklari asosida ma'rifat, vatanparvarlik, jasorat kabi qadriyatlarga nisbatan ongli yondasha boshlaydi.
- O'quvchilar jadidchilik harakatining faoliyati, uning yuzaga kelish sabablarini mustaqil tahlil qila oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- O'quvchilar Mahmudxo'ja Behbudiy va faoliyati orqali ijtimoiy adolat, ma'rifat va xalq xizmatida bo'lish g'oyalarini angelaydi hamda jamiyat oldidagi shaxsiy mas'uliyatini tushunadi.
- Tarixiy saboqlar asosida o'quvchilar maktab, oila va jamiyatda ijobiy o'zgarishlar qilishga intiladi.
- O'quvchilarda milliy meros, qadriyatlar va tarix haqida chuqur tushuncha shakllanadi, milliy iftihar tuyg'usi mustahkamlanadi.

Metapredmet: bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

- **Tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi:** O'quvchilar tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatini mustaqil tahlil qila oladi hamda ularni zamonaviy hayot bilan bog'laydi.

- **Fuqarolik qadriyatlariga asoslangan dunyoqarash shakllanadi:** O'quvchilar jadidlar faoliyatidan ibrat olib, o'z shaxsiy hayotiga ijtimoiy foydali xatti-harakatlarni tadbiq qilishga intiladi.

- **Jamoadi ishlash va ijtimoiy muloqot ko'nikmalari shakllanadi:** Guruhli topshiriqlar, fikr almashish orqali hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

- **Axborotni qidirish va uni baholash:** Ma'lumotlarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va tegishli joyda qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi:

1 qism. Motivatsion.

Darsning birinchi qismining maqsadi - o'quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. O'quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy.

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi. O'quvchilarga Jadidchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati, jadid bobolarimizning ilm-ma'rifat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar beriladi. Jadid bobolarimizning merosidan bugungi kunda unumli foydalanish haqida ko'nikmalar shakllantiriladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.

KIRISH. MOTIVATSION QISM.

O'qituvchi: Bugungi darsimizda Turkiston tarixida benazir o'rin tutgan bir jarayon - jadidchilik harakati, uning ma'rifat tarqatishdagi ulkan ta'siri va milliy uyg'onish davrining shakllanishi haqida suhbatlashamiz. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yurtimiz turli ijtimoiy-siyosiy bosimlarga duch kelgan bir paytda jadid ma'rifatparvarlari xalqni ilmga, taraqqiyotga, zamonaviy fikrlashga chaqirdilar. Ular "Millatni qutqaradigan kuch - ma'rifatdir" degan g'oyani bosh mezon deb bildilar.

Bu harakat vakillari yangi usuldagi maktablar ochdi, gazeta va jurnallar chiqardi, milliy o'zlikni saqlab qolish, xalqning uyg'onishi va mustaqil fikrlay olishini asosiy maqsad sifatida ilgari surdi. Ayniqsa, bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning o'rnini beqiyosdir. U faqat o'qituvchi yoki publitsist emas - balki xalq dardi bilan yashagan, sobit maqsadli islohotchi edi. Behbudi o'zining "Kitob - millatning ko'zgusi", "Ma'rifatsiz xalq - kelajaksiz xalq" degan g'oyalari bilan avlodlarni ilm, adolat va uyg'onishga yetaklagan buyuk siymodir.

Bugun biz ana shu fidoyilar kurashgan maqsadlarni, ularning bizga qoldirgan merosini va zamonaviy hayotimizda tutgan o'rnini birgalikda anglab olamiz. Sizlarning fikrlaringiz, savollaringiz va mulohazalaringiz darsimizni yanada mazmunli qiladi.

O'qituvchi: "Aziz o'quvchilar, sizlarga savol bilan murojaat etmoqchi edim.

1. Nima uchun jadidlar ma'rifatni millatning qutqaruvchisi deb hisoblagan?
2. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda milliy uyg'onish jarayoniga qanday hissalar qo'shgan, deb o'ylaysiz?

O'quvchilar: Javob berishadi.

O'qituvchi: Keling, aziz o'quvchilar, bugungi darsimizda sizlar bilan jadid ma'rifatparvarlari orasida alohida o'rin tutgan, xalqni ilm, taraqqiyot va uyg'onishga chorlagan buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, faoliyati hamda millat ravnaqi yo'lida qilgan ulkan xizmatlari bilan yanada chuqurroq va kengroq tanishsak. Uning g'oyalari, islohotchilik ruhi va adabiy-publitsistik merosi bizning bugungi hayotimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini birgalikda tahlil qilib ko'ramiz.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY: FIKR, MA'RIFAT VA ADABIYOT SADOSI

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, darsimizni boshlashdan oldin Mahmudxo'ja Behbudiy haqida videorolik tomosha qilsakda, keyin darsimizni davom ettirsak.

<https://www.youtube.com/watch?v=A5EsLK4xrM8>

O'qituvchi: Behbudiy 1908-yili "Qiroatxonayi Behbudiya" (keyinchalik "Behbudiya" nomi bilan mashhur bo'lgan) kutubxonasini ochgan. Ushbu kutubxona ikki navbatda – soat 9 dan 17 gacha va soat 18 dan 24 gacha ishlab, 60 dan 110 gacha bo'lgan kitobxonlarga xizmat ko'rsatgan. Behbudiy "Samarqand kutubxona islomiyasi" maqolasida kutubxonada 600 ta kitob va risola, gazeta va jurnallar esa undan ham ko'p bo'lganini yozgan.

1914-yilgi sayohati davomida Kavkaz, Qrim, Turkiya, Misr, Yunoniston, Bulg'oriston, Avstriya va Germaniyaning turli shaharlarida bo'lib, u yerlardan o'z kutubxonasi uchun juda ko'p kitob va risolalar olib kelgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yildan matbuot ishlarini yo'lga qo'yagan va shu yilning apreldan "Samarqand" gazetasi hamda avgust oyidan "Oyina" jurnali chiqa boshlagan. "Samarqand" gazetasi o'zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan. 1913-yil 17-sentyabrda gazetaning 45-soni chiqqan bo'lib, bir tomondan, mustamlakachilar senzurasini, ikkinchi tomondan, yetarli mablag' bo'lmagani sabab to'xtatilgan.

"Oyina" haftalik jurnal bo'lib, o'zbek va tojik tilidagi maqolalar berib borilgan. Uning obunachilari nafaqat Turkiston, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyada ham bor edilar. 1915-yilgacha nashr qilingan jurnalda Turkiston aholisining haq-huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalariga bag'ishlangan g'oyat muhim maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turgan. Mahmudxo'ja Behbudiy millat taraqqiysi uchun bir necha tilni bilishlikni shart deb hisoblagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy millat ziyolilaridan Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Hoji Muin, Akobir Shomansur, Muhammad Said, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzodaning maqolalari va she‘rlarini “Oyina” sahifalarida chop etib borgan. Nashr yosh qalamkashlar, bo‘lg‘usi adib va ma‘rifatparvarlar uchun tajriba maydoni vazifasini ham o‘tagani ma‘lum.

“Oyina” jurnali tahririyatining faoliyati mustamlakachilar tomonidan doimiy nazoratda bo‘lgan. O‘zbekiston Milliy arxivida Turkiston harbiy okrugining shtab boshlig‘i imzosi bilan Samarqand viloyat harbiy gubernatoriga 1914-yil 19-avgust kuni 100-xat yuborilgan bo‘lib, unda birinchi jahon urushi davrida “mahalliy matbuotda Rossiya manfaatiga zid maqolalar paydo bo‘lishi mumkinligi bois” Turkiston harbiy senzurasini Samarqanddagi nashrlarni nazorat qilib turishni shtabkapitan Otayevga topshirgan. “Oyina” jurnali to‘g‘rilama-qoralamasidan ko‘chirma jurnal bosmadan chiqishiga ikki kun qolguncha senzura yuborilishi bosh muharrir zimmasiga yuklatilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy harbiy okrugga chaqirtirilib, ushbu “o‘ta maxfiy xat” ostiga “o‘qdim va ma‘lumot uchun qabul qildim”, deya imzo chektirilgan. Shu bilan birga, Turkiston general-gubernatorligi nashri “Turkiston viloyatining gazetasi”da milliy jurnalda chop etilgan fikrlarga qarshi chiqishlar ko‘paytirilgan. “Oyina” bosh muharriri esa ularga munosib javob berib borgan. Ammo jurnal faoliyatini cheklash uchun olib borilgan uzluksiz harakatlar o‘z samarasini bergan va 1915-yilga kelib jurnal faoliyati butunlay to‘xtatilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyoyi Rusiy” (1905), “Kitobat ul-atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi darslik va qo‘llanmalar yozgan. Bundan tashqari, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Tujjor”, “Samarqand” gazetalari va “Oyina” jurnalida ko‘plab maqolalari chop etilgan.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar Mahmudxo‘ja Behbudiyning faoliyati haqida sizlarga bir nechta savol bilan murojaat etaman.

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy qaysi yili “Qiroatxonayi Behbudiya” kutubxonasini ochgan?
2. “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali qachon nashr etila boshlagan?
3. “Oyina” jurnalining obunachilari qaysi davlatlarda bo‘lgan?
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy qaysi asarlar va darsliklarni yozgan?

O‘quvchilar: Javob berishadi.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, dars davomida berilgan savollarga javob berish orqali sizlar Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatining tarixiy ahamiyatini, uning ma‘rifatparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalarini anglab yetdingiz.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – MILLIY TEATR POYDEVORINI QO‘YGAN MA‘RIFATPARVAR

O‘qituvchi: Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyat hayotidagi illatlar, nuqsonlar va ilmsizlikni sahnada ko‘rsatish orqali xalqni taraqqiyparvarlikka da’vat etish maqsadida 1914-yili milliy teatrga asos solgan. Teatr sahnasida ijro etish uchun “Padarkush” dramasi yozgan. Kitob jildiga “Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi” degan yozuv bilan Tiflis senzurasidan ruxsat olgach, 1913-yili uni chop ettirgan. Muallif “Milliy fojea” deb atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va tushunarli bo‘lib, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasining o‘ldirgani, nodonlik va jaholat haqida edi. “Padarkush” dastlab 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda, 1914-yil 27-fevralda Toshkentda sahnaga qo‘yilgan. Abdulla Avloniyning “Turon” guruhi Kolizeyda (hozirgi savdo birjasi binosi) o‘z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi. “Turon” guruhi 1914–1916-yillari bu spektakl bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqqan. Ushbu sahna asari Turkistonni junbushga keltirgan qirg‘inbarot yillarda ham sahnadan tushmaydi. Bu bir tomondan millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan rosmana o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotiga xizmat qilgan.

O‘qituvchi: Endi sizlarga savol bilan murojaat qilaman.

- Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy teatni qachon tashkil qilgan va uning asosiy maqsadi nima bo‘lgan?
- “Padarkush” dramasi qanday mazmun va maqsadga ega edi?
- “Padarkush” dastlab qachon va qayerda sahnalashtirilgan?
- “Turon” guruhi qaysi joylarda va qaysi davrda “Padarkush” spektakli bilan faoliyat yuritgan?
- Mahmudxo‘ja Behbudiy sahna asarlari orqali xalqni qanday yo‘nalishga undagan?

O‘quvchilar: Javob berishadi.

O‘qituvchi: Barakalla aziz o‘quvchilar. Sizlarning Mahmudxo‘ja Behbudiyning teatr va dramachilik faoliyati haqida ancha ma’lumotga ega bo‘lganingizga amin bo‘ldim.

MILLIY OZODLIK YO‘LIDAGI FAOLIYAT

O‘qituvchi: 1917-yil fevralda Rossiya markazidan yuz bergan keskin o‘zgarishlar, xususan, imperator Nikolay II taxtdan ag‘darilib, Muvaqqat hukumat tuzilgani sharoitida metropoliya siyosatchilarini birlashtirgan partiyalar hokimiyat uchun kurashga kirishganlar. Turkiston jadidlari ushbu tarixiy lahzalarni hurriyat shabadalari sifatida qabul qilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ham yeng shimarib,

ishga kirishgan. “Xudoyi taolo bizga hurriyat berdi. Diniy va milliy islohot va taraqqiyimiz uchun harakat va say’ etmoqg’a yo‘l ochiqdur” deb, bu jarayonlardan unumli foydalanish zarurligini ta’kidlagan va birlashib harakat qilishga da’vat etgan.

1917-yil martda Toshkentda Turkiston musulmonlari qurultoyi o‘tkazilib, Turkiston musulmonlari sho‘rosi milliy markazi saylangan. Unga mintaqaning hamma bo‘laklaridan vakillar, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Nosirxon To‘ra, Muhammad Tinishboyev, O‘roz Sardor ham kiritilganlar.

1917-yil 16-23-aprelda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan qurultoyda Mahmudxo‘ja Behbudiy nutq so‘zlab, millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechish, buyuk maqsad yo‘lida birlashish, ittifoq bo‘lishga chaqirgan. “Ixtilofimiz sababli mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar”, deb ochiq aytgan.

1917-yil yozida Rossiya o‘z muammolari bilan ovora bo‘lib turgan davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston xalqlari kelajagini o‘ylab, “Biz istaymizki, butun Rusiya musulmonlari muxtoriyat usuli yuzasidan tirikchilik qilsunlar... Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar qo‘shilgan holda... Turkiston hukumati ta’sis etsak, o‘zimizni majlisi mushoharatimiz (parlamentarizm) bo‘lsun”, deb yangi takliflar bergan.

Bu taklifga birinchi bo‘lib chorizmdan qolgan “burjuachilar” emas, “morozovchilar”, ya’ni bo‘lg‘usi bolsheviklar qarshi chiqqanlar. Ular Mahmudxo‘ja Behbudiyning adolatli yondashuvlaridan xato topa olmaganlar. Biroq, uning takliflarini “shoshqaloqlarcha” berilgan, deya e’tiroz bildirganlar. Shuningdek, o‘zlarining har jihatdan ustunliklarini ko‘rsatib, “Musulmonlar o‘zlarini boshqarishda hali ruslardan ko‘p o‘rganishlari kerak. Dumada ishbilarmon, uddaburon, mehnatsevar kishilar o‘tirsas, unda turli jamiyat va siyosiy guruh talablarini yoqlaydigan kishilar bo‘lsa, shaharda ishlar yaxshi ketadi. Bunday guruhlar ruslarda ko‘p bo‘ladi, musulmonlarda esa bo‘lmaydi... Fikrimizcha, agar musulmonlar va mahalliy yahudiylar saylovchilarning yarmini yuborib, ikkinchi qismini mahalliy bo‘lmaganlarga qo‘yib bersalar, ish ravnaqi uchun foyda va haqqoniylik buzilmagan bo‘ladi”, deb xulosa yasaydilar.

1917-yil oktyabrda hokimiyatni to‘liq egallagan bolsheviklar yeng shimarib mustamlakachilik siyosatini kuchaytirishga kirishganlar. Millat oydinlari yangi hukumatdan muxtoriyat talab qila boshlaganlar. 1917-yil 26-noyabr kuni Qo‘qon shahrida o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi chaqirilgan va Turkiston muxtoriyati tashkil etilgani e’lon qilingan. Yangi Turkiston asoschilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lib, millat fidoyisining ozodlikka bo‘lgan intilishi, uni intiqib kutgani “Hurriyat” gazetasining 1917-yil 22-dekabr sonidagi “Turkiston

muxtoriyati” sarlavhali maqolasidagi quyidagi fikrlaridan bilib olishimiz mumkin: “27-noyabrda Ho‘qandda Turkiston muxtoriyati Umumiy musulmon se’zida e’lon qilindi. Muborak va xayrli bo‘lsun! Kamina ham majlisda bo‘lganim uchun iftixor etaman. Yashasun, Turkiston muxtoriyati! ...Shuni bilmoq kerakki, butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to‘kilmas. Yer va amlok ham taqsim bo‘lmay qolur. Din ham rivoj topur. Ming karra dodu bedodlik ixtilof etmoq uchun ittifoq etganmiz va ixtilofimiz sababi ila badbaxtliqg‘a duchor bo‘lurmiz. Butun Turkiston ittifoq etsa, 15 millionlik bir quvvat ummong‘a kelurki, shunga yer titraydur. Agar so‘zumni fahmlata olgan bo‘lsam, o‘zimni baxtli hisoblardim”.

Turkistondagi mustamlakalaridan mahrum bo‘lishni istamagan bolsheviklar Muxtoriyatga qarshi chiqqanlar va 1918-yil fevralda uning markazi - Qo‘qon shahriga hujum uyushtirganlar. Shahar qonga botirilgan. Mustaqil davlat tuzishga harakat qilgan hukumat bor-yo‘g‘i 72 kun yashagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Qo‘qondagi voqealardan tushkunlikka tushmagan, millat manfaati yo‘lida xizmat qilishda davom etib, so‘nggi nafasigacha ozodlik uchun kurashgan. U ayrim yurtdoshlari singari “qizil” bosqinchilar safiga qo‘shilgan emas, balki 1917-yildayoq bolsheviklarga qarshi tuzilgan, yashirin faoliyat olib borgan “Ittihodi taraqqiy” jamiyatiga kirgan. Jamiyat o‘z faoliyatini tashkillashtirishda Turkiyadagi “Ittihod va taraqqiy” tashkilotidan yordam so‘raydi va ikki marta maxsus vakillarini Turkiyaga yuboradi. Ammo har ikkala vakillik ham maqsadiga erisha olmagan. Birinchi vakillar Sadirxon va Sa’idnosir Mirjalilovlar 1918-yil Istanbulga borganlarida, Yosh turklar hukumati mag‘lubiyatga uchragan va tashkilot a’zolari muhojirlikka ketgan edi. Shuning uchun ular belgilangan kishilar bilan uchrasha olmay Toshkentga qaytganlar.

Ikkinchi hay’atning borishi 1919-yili rejalashtirilgan bo‘lib, uning tarkibiga Toshkentdan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev va Sa’idnosir Mirjalilov, Samarqanddan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mardonqul va Muhammadqul kirgan edilar. Ularning Turkistondan chiqib ketishlaridan sovet hokimiyatining Favqulodda komissiyasi (CHK) – maxsus xizmati xodimlari xabar topganlar. Ushbu sharotida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev Moskvada, Sa’idnosir Mirjalilov Tiflisda yashirinishga majbur bo‘lganlar.

MILLATNI UYG‘OTGAN OVOZNING JIM BO‘LISHI: BEHBUDIYNING FOJEALI QISMATI

O‘qituvchi: Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yili Favqulodda komissiya ayg‘oqchilari yordamida Shahrisabz bekligida qo‘lga olingan. Oradan taxminan ikki oy o‘tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlangan. Bir necha kundan so‘ng Qarshi begi Tog‘aybekning buyrug‘i bilan yordamchisi Nuriddinxo‘ja Og‘aliq

Ahmadxo‘ja o‘g‘li tomonidan zindon yaqinidagi “podsholik chorbog‘i”da o‘ldirilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning qatl qilingani Samarqandda bir yildan keyin ma’lum bo‘lgan. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Sadridin Ayniy va boshqa shoirlar unga atab marsiyalar yozganlar.

Keyinchalik, Mahmudxo‘ja Behbudiyning Samarqandda faoliyat yuritayotgan shogirdlari, safdosh va maslakdoshlari uning qabrini izlab topish, qotillarni aniqlash harakatiga tushganlar. Ular “Samarqand komissiyasi”sini tuzib, Qarshiga kelganlarida, bu paytda ushr-soliq nazorati idorasining boshlig‘i bo‘lib olgan Nuriddin Og‘aliq ularning faoliyatiga yo‘l qo‘ymagan. Qarshi shahridagi hukumat a‘zolari esa uning xohish-irodasiga qarshi chiqolmaganlar.

Amirlik davrida yuqori mansabda ishlagan Nuriddin Og‘aliqning sovet hukumatida ham o‘z mavqeini saqlab qolishining sababi bolsheviklar bilan hamkorlikda Mahmudxo‘ja Behbudiyni yo‘q qilib yuborgani bilan bog‘liqligini hech kim inkor etolmaydi, albatta.

Ammo 1923-yil kuzida BXSР hukumati taftish komissiyasi Qarshi viloyati soliq idorasi faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazgan. Komissiya Nuriddin Og‘aliq hamda uning safdoshlari katta qonunbuzarlik va jinoyatga qo‘l urganlarini aniqlagan. Chunonchi Nuriddin Og‘aliq hukumatning 42 ming pud bug‘doyi va 20 ming oltin quymasini talon-taroj qilganlikda, mehnatkashlarning 1000 – 2000 tasini yarim och, yarim to‘q holatda o‘z yerlarida ishlatganlikda ayblangan. Bundan tashqari, buyuk mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiyni hayotiga zomin bo‘lgani bilan bog‘liq jinoyati ham qo‘shilib, sud Nuriddin Og‘aliqni otishga qaror qilgan. Hukm 1923-yil 19-sentyabrda Registon maydonida 5000 aholi ishtirokida amalga oshirilgan. “Buxoro axbori” gazetasida “Behbudiyni va rafiqlarining o‘ldirilishiga sabab bo‘lg‘on fuqaro hukumatining molig‘a xiyonat qilgan mazkur Og‘aliq 19-sentyabrda (1923-yil) odil hukumatimiz tomonidan otildi, demak, Behbudiyni va rafiqlarining o‘chlari olindi”, deb xabar berilgan.

Buxoro hukumati Qarshi viloyati ijroqo‘mi raisi Jo‘ra Zokiriy hamda Qarshi viloyat firqo‘mi Nazarov zimmasiga Mahmudxo‘ja Behbudiyni qabrini qidirib topib, uning haykalini o‘rnatish vazifasini yuklagan. Lekin bu mutasaddi shaxslar o‘zlariga yuklangan vazifani uddalay olmaganlar. “Ozod Buxoro” gazetasining 1923-yil 19-oktyabrdagi sonida “Turkistonning mashhur jamoat xodimlaridan Behbudiyning ismini umrbod (abadiy) qoldirmoq uchun Buxoro Respublikasi qurultoyi Qarshi viloyatini Behbudiyni viloyati deb ismlamakka qaror berdi”, deb xabar berilgan.

Qarshi viloyati 1937-yilga qadar Behbudiyni viloyati deb atalgan bo‘lib, shu yili boshlangan qatag‘onlar oqibatida viloyatdan alloma nomi olib tashlangan.

O'zbekning barcha ziyolilari singari Mahmudxo'ja Behbudiy ham millat ozodligi va taraqqiyoti uchun kurashgani uchun sovetlarning qora ro'yxatidan o'rin oladi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar yuqoridagi ma'lumotlar asosida sizlarga savollar bilan murojaat etmoqchiman.

- 1917-yil fevral inqilobi Turkistondagi jadidlar, xususan Behbudiy faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

- Turkiston musulmonlari qurultoyida Mahmudxo'ja Behbudiy qaysi asosiy g'oyalarga chaqirgan?

- Turkiston muxtoriyati qanday sharoitda tashkil etilgan va uning markazi qayerda edi?

- Mahmudxo'ja Behbudiy mustamlakachilikka qarshi qanday yashirin faoliyat olib borgan?

- Behbudiy qanday sharoitlarda qo'lga olinib, qatl qilingan va bu voqea Turkiston ziyolilariga qanday ta'sir qilgan?

- Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatidan o'quvchilar milliy ozodlik va vatanparvarlik bo'yicha qanday saboq olishlari mumkin?

O'quvchilar: Javob berishadi.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY NOMINING TIKLANISHI: TARIXIY ADOLATNING QAROR TOPISHI

O'qituvchi: O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha jadid bobolarimiz singari Mahmudxo'ja Behbudiyning ham muborak nomi qayta tiklandi. Tarixchi va tilshunos olimlar tomonidan uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda ilmiy merosini o'rganish boshlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta'lim tizimiga asos solgan, millat ozodligi, xalq farovonligi uchun kurashgan barcha jadidlarga, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyga ehtirom ko'rsatib, yoshlarga o'rnak qilib ko'rsatish hamda ma'naviy merosini chuqur o'rganish bo'yicha oqilona va adolatli ishlar qilayotgani yaxshi ma'lum. 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada milliy yetakchimiz "2020 yili xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", degan ta'kidlari buyuk allomaning millatimiz va davlatimiz oldidagi tengsiz xizmatlarining e'tirofidir, albatta.

Prezidentimiz 2020-yil 30-sentabr kuni “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalari haqida to‘xtalib, “...mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi... Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar” dedi hamda uch jadid: Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudi va Munavvarqori Abdurashidxonovni istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan fidokorligi, “milliy ta’lim va tarbiya tizimi”ni yaratishdagi hissasi uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlanganini bildirdi. O‘z davridayoq “Turkiston jadidchilik harakati otasi” deb e’tirof etilgan Mahmudxo‘ja Behbudiyni qilgan xizmatlari e’tirof etilib, davlatimiz rahbari tomonidan munosib taqdirlandi. Mustaqillik yo‘lida fido bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyni umri millat va Vatan umri qadar boqiydir.

E’tiboringiz uchun rahmat!